



TIIAME

ERKIN VOHIDOVNING HAYOTI VA IJODI. *(1936 - 2016)*



Fan- O‘zbek tili
O‘qituvchi- Mamarajabova Iroda Fayzullayevna



TIIAME

Reja:

1. Erkin Vohidovning hayoti va ijodi.
2. “Ona tilim o’lmaydi” she’ri
3. Topshiriqlar



O‘zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov 1936-yil 28-dekabrda
Farg‘ona viloyatining Oltiariq tumanida o‘qituvchi oilasida dunyoga
kelgan.



TIIAME





Otasi Cho‘yanboy Vohidov, onasi Roziyaxon davrning obro‘-e’tiborli, ma’rifatli, faol kishilari edi. E. Vohidovning otasi ikkinchi jahon urushidan og‘ir jarohat olib qaytadi va 1945-yil vafot etadi.



TIIAME





Bir yildan keyin onasi ham dunyodan o‘tadi. O‘n yoshga yetar-yetmay
ham otadan, ham onadan ajralib qolgan yosh Erkinni Toshkentlik
tog‘asi o‘z tarbiyasiga oladi.



TIIAME





TIIAME

Erkin Vohidovning she'riy to'plamlari

„Tong nafasi“ (1961)

„Qo'shiqlarim sizga“ (1962)

„Yurak va aql“ (1963)

„Mening yulduzim“ (1964)

„Nido“ (1965)

„Lirika“ (1965)

„Palatkada yozilgan doston“ (1967)

„Yoshlik devoni“ (1969)

„Charog'bon“ (1970)

Erkin Vohidovning rus tiliga tarjima qilingan to‘plamlari

„Лирика“ („Lirika“) (1970)

„Стихи“ („She’rlar“) (1974)

„Узелок на память“ („Uchi tugilgan ro‘molcha“) (1980)

„Восстание бессмертных“ („Ruhlar isyoni“) (1983)

„Линия жизни“ („Hayot yo‘li“) (1984)

„В минуту песни не порвись, струна...“ („Kuy avjida uzilmasin tor“) (1986)

Shoir avval maktabda, so‘ng hozirgi O‘zbekiston Milliy universitetining filologiya fakultetida ta’lim oladi. 1960-yilda o‘qishni tugatgach, turli nashriyot, gazeta va jurnallarda muharrir, bosh muharrir, direktor lavozimlarida ishlaydi. Erkin Vohidov «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni va «O‘zbekiston Qahramoni» unvoni bilan taqdirlangan.





Ona tilim o'lmaydi

Notiq dedi:
Taqdir shul,
Bu jahoniy iroda.
Tillar yo'qolur butkul,
Bir til qolur dunyoda.
«Ey voiz, pastga tush,
Bu gap chiqdi qayerdan?
Navoiy bilan Pushkin
Turib keldi qabridan.
Kim darg'azab,
Kim hayron,
Chiqib keldilar qator:
Dante, Shiller va Bayron,
Firdavsiy, Balzak, Tagor.
Va'zingni qo'y birodar,
Sen aytganing bo'lmaydi.
Barcha dedi barobar:

«Ona tilim o'lmaydi».
– Hech bu qanday aqida! –
Qo'lida tabarruk jom,
Forsiy tili haqida
Ruboiy aytdi Xayyom.
Ehtirosli, otash dil
Beranje so'rди nolon:
– Nahotki farangi til
Yo'qolgusi bir zamон!
Neruda, Lorka turdi
Servantesning yoniga:
Kim qasd etib tig' urdi
Ona tilim joniga!
Fuzuliy yonda: ozar
Tili guldek so'lmaydi, –
Barcha dedi barobar:
«Ona tilim o'lmaydi».

Kamalakdek rango-rang
Bo'lsin deb san'at, tillar.
Asrlarga qildi jang,
Armon qildi ming yillar.
Beqadr bo'lsa nahot
Tillardagi tarovat!
Yo'qoldi bu kun, hayhot,
Qabrлarda halovat!
«Faust» yondi gurillab,
«Xamsa» o'tga tutashdi.
Bir sado jahon bo'ylab
Taraldi, tog'lar oshdi.
Bu sado yangrar hamon,
Sira ado bo'lmaydi.
Olam aytar:
Hech qachon
«Ona tilim o'lmaydi».





TIAME

Lug‘at

notiq – оратор

kamalak – радуга

darg‘azab – рассерженный

hayron – удивленный, изумлённый

tabarruk – чтимый, священный



TIIAME

ASARLARI

„Birinchi jild: Bahor tarovati“ (2015)

„Ikkinchi jild: Yoz harorari“ (2015)

„Uchinchi jild: Kuz saxovati“ (2015)

„To‘rtinchi jild: Qish halovati“ (2015)

„Beshinchi jild: Qalb sadoqati“ (2018) (proza)

„Oltinchi jild: Erk saodati“ (2018) (proza)

„Tabassum“ (2017)



Uyga vazifa.

1. She'rda keltirilgan buyuk shoirlar haqida ma'lumot bering.
2. «Ona tilim o'lmaydi» misrasiga izoh bering.
3. She'rdagi uyushiq bo'lakli misralarni topib daftaringizga yozing.





E'tiboringiz uchun rahmat!